



## O‘ZBEK ADABIYOTIDA IT OBRAZINING IJTIMOIIY-FALSAFIY VA BADIY-ESTETIK ASOSLARI

**Ashurov Bekzod Shavkatjon o‘g‘li**

NamDU O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrası o‘qituvchisi

**E-mail:** [bekzod.ashurov.1994@mail.ru](mailto:bekzod.ashurov.1994@mail.ru)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotidagi it obrazining ijtimoiy-falsafiy va badiiy-estetik asoslari, ularning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. “O‘zbek xalq maqollari” to‘plamida bevosita it obrazi bilan bog‘liq maqollar tahlil qilingan. Said Ahmadning “Qoplon” nomli hikoyasidagi Qoplon laqabli it yordamida xudbin, shaxs sifatida tor fikrli kishining obrazi ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Abu Homid G‘azzoliy, Abdulla Qodiriy, Said Ahmad, hikoya, obraz, kompozitsiya, personaj, “Qoplon”, it, o‘zbek xalq maqollari.

**Abstract.** This article discusses the socio-philosophical and artistic-aesthetic foundations of the image of the dog in Uzbek literature, as well as their ideological-artistic features. The collection of “Uzbek folk proverbs” analyzes proverbs directly related to the image of a dog. The image of a selfish, narrow-minded person as a person is revealed with the help of a dog named Koplun in Said Ahmed's story “Koplun”.

**Key words.** Abu Hamid Ghazali, Abdulla Qadiri, Said Ahmad, story, image, composition, character, “Leopard”, dog, Uzbek folk proverbs.

Badiiy obraz o‘zining tabiati, xarakteri va xususiyatlariga ko‘ra, murakkab, serqirra hamda turli shaklda namoyon bo‘ladi. U aynan qaysi shakl, qay ko‘rinishda, kimning yoki nimaning obrazini (masalan, daraxt, olma, tog‘, gul, miltiq, ot, it, odamni) aks ettirishidan qat’iy nazar unda muallifning tashqi borliqqa bo‘lgan ruhiy-intellektual, hissiy-falsafiy va aqliy munosabati yuzaga chiqadi. Shu ma’noda biz tahlil qiladigan va tadqiqot obyekti sifatida olgan badiiy adabiyotda it obrazi orqali ham insonshunoslikka oid muammolar



badiiy tahlil etish mumkin. Masalan, har qanday badiiy asar mohiyatan ma'lum ijtimoiy guruh, qatlam, millat, xalq turmush tarzini, ruhiy-madaniy hayotini aks ettiradi. Bu esa inson ijtimoiy taraqqiyotining muhim belgisi sifatida baholanadi. Shuning uchun insonning badiiy tafakkuri tarbiyasiga, sog'lom fikrlash va tuyg'u tarbiyasiga qadimdan katta ahamiyat berilgan. Bunda inson va tabiat aloqasi, o'zaro munosabati ham katta o'rin tutadi. Shuning uchun Sharq manbalarida ham inson bilan tabiat aloqasiga e'tibor berilgan. Zarur o'rinlar, bu munosabatlar teran tahlillar asosida ochib berilgan. Xususan, buyuk imom Abu Homid G'azzoliy o'z asarlarining birida odam va olam aloqasi haqida quyidagilarni yozishgan: *Va har nimarsaki, olam sahifasida bordur, odam badashda ham namunalari bordur. Chunonchi, ustixon tog'ga o'xshashdur. Va tomirlar yomg'ir yog'diruvchi. Va mo'ylar (tuklar) daraxtlar misolidur. Va dimog' osmon monand va havoslar hissiyotlar) sitoralar (yulduzlar) nishonasidur. Va bu so'zning tafsiri bisyordur. Barcha mavjudotning turlari odam vujudida misoli bordur. Chunonchi, to'ng'iz va bo'ri va it va (boshqa) to'rtoyoqlilar, dev, pari va farishta, andog'kim, yuqorida mazkur bo'ldi*<sup>1</sup>. Mazkur o'rinda buyuk olim inson vujudiga aloqasi bo'lgan mavjudot yoki hayvonlar haqida fikr yuritir ekan, misoli, deya, ularning metaforik fikr ekanligini ta'kidlaydi. Ya'ni, olim ta'kidlagan jihatlar inson tabiati, xarakteri bilan bog'liqligi haqidagi fikr ilgari surilgan.

Boshqa bir kitobda esa buyuk imom hazratlari qalb sirlari, inson tabiati, inson a'zolarining xususiyatlari haqida fikr yuritayotib, aql va nafsni ot va itga qiyoslashadi. *“Uchinchi misol – aqlning misoli go'yo ot minib olgan bir ovchiga o'xshaydi, uning shahvati mana shu otiga va g'azabi esa uning itiga o'xshaydi. Agar bu sayyod ov qilishga mohir bo'lsa va uning oti chiniqtirilgan, iti esa o'rgatilgan bo'lsa, u zafar topadi va ovi baroridan keladi. Agar o'z nafsini yaxshi bilmasa, o'z ishiga usta bo'lmasa, oti hurkak va iti qopag'on bo'lsa, ot ham unga bo'ysunib ham yurmaydi va it ham uning ishorasi bilan itoat qilgan holda yugurib kelmaydi, bu ovchi istagan narsasiga yetishish u yoqda tursin,*

<sup>1</sup> Abu Homid G'azzoliy. Kimyoi saodat (Ruh haqiqati). Nashrga tayyorlovchilar: Mahkam Mahmud Andijoniy, Abdulloh Umar Toshkandiy.– Toshkent: Adolat, 2005. – B.34 (234) [www.ziyonet](http://www.ziyonet) kutubxonasi.



*balki halok bo'lishi ham mumkin. Ovchining mohir bo'lmasligi insonning johilligiga, donoligi yetishmasligiga va qalb ko'zining charchaganiga o'xshashdir, otning hurkakligi shahvat, xususan, qorin, jinsiy shahvatning g'olib kelganiga o'xshashdir. Itning qopag'onligi esa g'azab g'olib kelib insonni egallab olganiga o'xshaydi”*<sup>2</sup>. Bu yerda biz uchun e'tiborlisi it obrazining ikki xil tasviri borligidir. To'g'ri, metaforik asosda nafsni ifodalagan, ammo muallif o'quvchilarga o'z fikrini osonroq yetkazish uchun it obrazidan foydalangani, o'sha davrda ham it kishilar o'rtasida yaxshi va yomon jihatlari bilan yashab kelayotganini bildiradi.

“O'zbek xalq maqollari” to'plamida bevosita it obrazi bilan bog'liq yuzdan ortiq maqollar borligi aniqlandi<sup>3</sup>. Ularda it so'zi, shuningdek, “tozi”, “boytevat”, “kuchuk” so'zlari qo'llangan bo'lib mavzu jihatdan turli mavzularda qo'llanilgan.

Vatanparvarlik, yurtga fidoiylik haqida (*Birovning yurtida bek bo'lguncha, o'zingning yurtida it bo'l* [9]), birlik, do'stlik, jamoyaviylik (*Yolg'iz itning hurgani bilinmas* [17]), imkonsizlik (*Itining oti «Boytevat»* [184]), shaxs erki (*Bo'ynidan bog'langan it ovga yaramas* [24]), mehnatsevarlik va dangasalik (*Aravani ot tortar, Ko'lankasin – it* [23]), intilish, harakat qilish, olg'a yurish ruhan tushmaslik (*It yursa, so'ngak topar* [27]), mehirsizlik, yuzsizlik (*It otasini tanimas, Mushuk – bekasini* [64]), do'stlik, hamkorlik (*it bilan ovchi ovda o'rtoq* [66]). Yuqorida biz it obrazi bilan bog'liq tushunchalarning mavzusiga ko'ra tasnifini keltirdik, xolos. Shu yerning o'zi da ham it obrazining ijobiy va salbiy ifodasini, ba'zi o'rinlarda majoziy ma'noda inson xarakterini aks ettirishganini kuzatish mumkin.

Adabiyotshunos T.R.Matyoqubova Ogahiy liriklasidagi it obrazini tahlil etgan. Bunda tadqiqotchi inson va tabiat birligi, odam olam munosabatlarini quyidagicha izohlaydi: “Ibtidoiy insonning tabiat go'zalligi, rang va ohaglardan ta'sirlanishi tuyg'u va fikrlarni muayyan vosita bilan tasvir ehtiyojidan tug'ilgan badiiy ijod inson tafakkurining tajassumidir. Ilk kishilik madaniyati davridayoq toshlarga hayvonlar suratlari chizilgan.

<sup>2</sup> Abu Homid G'azzoliy. Ihyou ulumid-din Din ilmlarini jonlantirish). – Toshkent: Mavoruunahr, 2006. – B.9-10.(120) [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.

<sup>3</sup> O'zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov; Mas'ul muharrir: Sh.Turdimov. — Toshkent:Sharq, 2005. — 512 b. Maqollar shu manbadan olingan. Keyingi o'rinlarda katta qavsda kitob beti ko'rsatiladi.



Ular orasida itlarning ham borligi, turli marosimlarda hayvonlarning niqoblaridan foydalanish, afsun va jodu yordamida odamni itga, itni esa boshqa hayvonga aylantirish kabi afsonaviy rasm-rusumlarning mavjudligi totemizm ildizlaridir<sup>4</sup>. Darhaqiqat it obrazining tarixiy ildizlari totemistik qarashlar zamiridan o’sib chiqqan, lekin ijtimoiy taraqqiyot har bir yangi davrida badiiy adabiyotda it obraziga yangicha vazifa yuklangan deyish maqsadga muvofiq bo’ladi. Adabiyotshunos olim Ogahiy lirikasida ham it obrazi alohida tilga olinishga loyiq obraz ekanligidan kelib chiqadi. “It poetik obraz sifatida tasavvuf she’riyatida majoziy mohiyat kasb etadi. Ta’ma, hasad, shahvat, kibr singari nafsoniy hislarni yengish orqaligina so’fiy o’z ruhini poklashi mumkin. Nafs iti, ya’ni nafsoniy hislarga taslim bo’lmaslik yurak, ishq va e’tiqod yuksakligidir”<sup>5</sup>. Olima bu yerda it obrazining tasavvufona talqini va she’riyatdagi istifodasini teran tahlil qiladi.

Shu o’rinda aytish kerakki, islom dini Turkistonda yetakchi dinga aylangach it obraz va uning ijobiy jihatlari shariat tomonidan qoralandi va badiiy adabiyotda ham itga murojaat nisbatan kamaydi. Borlari ham tasavvufda ramziy, majoziy ma’noga ko’chdi. Holbuki, islomda itning ba’zi jihatlari ijobiy sanalgan. Masalan, Abu Homid G’azzoliy “Ammo mushukni va itni va asalarini uyasi birla, bedana, kaklik, sher va yo’lbars va munga o’xshash xushovoz, xushrang jonivorlarni olmoq va sotmoq durustdurkim, ularning manfaati ko’ngilga yetgan rohati va sururidir”<sup>6</sup>. Bu yerda itdan kishiga manfaat borligini va uni sotmoq, sotib olish durustligi ta’kidlangan.

Yuqorida biz tahlilga tortgan manbalardan ma’lum bo’lmoqdaki, o’zbek adabiyoti tarixida it obraz tadrijiy takomilida mazkur obraz dastlab insonning yaqin do’sti, uyi va mulkini himoyasi, jonini yovuz kuchlardan asrovchi, sodiqlik timsoli sifatida kelgan. It qator o’rinlarda ulug’gan. Xalq o’g’zaki ijodida itning turli ijobiy va salbiy vazifalari deyarli teng ravishda ko’rsatilgan. Lekin ijtimoiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida o’zbek yozma adabiyotida it obrazining vazifasi turli ijtimoiy sabablarga ko’ra pasaya borgan. Bunda islomiy ta’limotlarning ham o’rni bor. Lekin tasavvuf adabiyotida it obrazi oshiq,

<sup>4</sup>Матякубова Т.Р. Поэтик идрок ва маҳорат. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2011. – Б.41 (172)

<sup>5</sup> Yuqoridagi manbaa. – B. 44.

<sup>6</sup> Abu Homid G’azzoliy. Kimyoi saodat (Ruh haqiqati). Nashrga tayyorlovchilar: Mahkam Mahmud Andijoniy, Abdulloh Umar Toshkandiy. – Toshkent: Adolat, 2005. – B.157 (234) [www.ziyounet](http://www.ziyounet) kutubxonasi.



o‘z nafsini xor qiluvchi buyuk shaxs, sabr-toqat timsoli kabi turli ramziy obrazlarni ifodalagan.

XX asrda real tabiat tasviri, hayvonot olami va inson munosabatlari realistik asosda yaratilishi kuchaydi. Xususan, Abdulla Qodiriy “It urishdirish ishlari” nomli kichik epik asarlari tarkibiga kiruvchi maqolaga yaqin asarini keltirish mumkin. Shu o‘rinda aytish kerakki, asar tili kesatq, piching, kinoya hamda badiiy vosita va ifodalarga boyligi bilan badiiy asarga yaqin keladi. Unda XX asr boshlaridagi ba’zi salbiy jihatlarni, xususan, asosiy masala ijtimoiy taraqqiyot bo‘lgani holda siyosiy doiralarning ishi, jumladan, shaharning aksariyat aholisi it, tuya, xo‘roz urishtirish, bunda mahalliy kishilar guruhlariga bo‘linib ketganligi tanqid qilingan.

*“Ko‘kcha dahasi bilan Beshyog‘och dahalarining oralaridag‘i siyosiy munosabat kutilmagan joyda buzilib ketib, san-manga borishib qoldilar. Bu buzilishning ibtidosi Ko‘kchanning Chig‘atoyi” bilan Beshyog‘ochning Chaqaridan it urushdirish masalasidan chiqdi. Chig‘atoyning o‘n yildan beri suv o‘rnig‘a sut berib, zo‘raytirgan kelgan olaparini Chaqarning ahamiyatsiz gurjisi qochirub qo‘ymasinmu. Bu boqi‘adan ko‘kchaliklarning katta-kichigi hayajonga kelib Mallaxonning tarixiy itlaridan bo‘lgan “davangi”ni maydoni harbgacha chiqardilar. Bu boqi‘aga har ikki tarafdan o‘n minglab kishi tantana va dabdaba bilan ishtirok qilib urushdirish maxsus duolar bilan boshlandi. Garchi urush maydonlarida bo‘lish xavfli bo‘lsa ham na chorakim to‘g‘ri xabar olmoq uchun muhoraba ustida hozir bo‘lmoqqa majbur edim”<sup>7</sup>.*

Mazkur parcha asarning uchdan bir qismini tashkil etadi. Muallif juda silliq va noziklik bilan bunday joyga borish yaxshi ish emasligi, ammo jurnalistlik kasbi shuni taqazo qilishini qistirib o‘tadi. Bu millat uchun zarurligini, ba’zi “siyosatchi”larning qiyofalarini aslicha ko‘rsatish lozimligiga ishora qiladi. Bundan tashqari, undagi tasvir ko‘lami, ijtimoiy muammoning badiiy ifodasi anglatgan mazmun salmog‘i o‘ziga yarasha hisoblanadi. Muallif katta siyosiy masala sifatida kinoya bilan bayon qilgan hodisa aslida aholi ma’naviy qashshoqligini aksi sanaladi. Butun boshli shahar aholisi ikkiga ajralib, minglab kishilar yig‘ilib it urishtirishga va bunda bir tomon yutqazib, ikkinchi tomon

<sup>7</sup> Қодирий, Абдулла. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2014. – Б.605.



yutib, bir-biri bilan “*san-manga borish*”i, buning ortida johillik turishi, muallif esa ana shunda kishilarni o‘zlariga kulgi vaziyatini bayon etar ekan ma’rifatparvarlik, milliy o‘zligini anglash, ruhan uyg‘onish g‘oyalarini ilgari surgan.

Yozuvchi it urishtirish jarayonini xuddi katta jangga o‘xshatib tasvirlaydi va bu bilan mamlakat aholisi aslida o‘z aql-idroki, insoniyligiga qarshi kurashayotganini aks ettiradi. To‘g‘ri buni ochiq bayon etmaydi. Ammo teran va sog‘lom fikrlovchi o‘quvchi buni darrov tushunadi: *“Yarim soatlik qonli “g‘ov-v-v-v-v, g‘uv-v-v, ov-v-v”dan so‘ng Mallaxonning davangisi mag‘lub bo‘lib, faje’ bir suratda yaralandi, ba‘zilarning tarbuzlari qo‘ltiqlaridan tushub, ko‘ngil ozishlar ham voqi’ bo‘ldi. Beshyog‘och og‘a-inilarining bu vaqtdag‘i quvonchlari ichlariga sig‘mas va pahlavon itlarning og‘zidan o‘pishlari ham g‘ayri ixtiyoriy edi”*.

Keltirilgan parchada it urishtirish jarayonidagi kishilarning holatlari badiiy tasviriy ifodalar orqali ta’sirchan ifodalangan. Jumladan epitet (*qonli*), taqlid so‘zlar (“g‘ov-v-v-v-v, g‘uv-v-v, ov-v-v”), o‘xshatish (*faje’ bir suratda*), metafora (*tarbuzlari qo‘ltiqlaridan tushub, ko‘ngil ozishlar*), mubolag‘a (*ichlariga sig‘mas*) kabilar matnning badiiyligini kuchaytirish bilan birga asarning kompozitsiyasiga mukammallik bag‘ishlagan. Bu umumiy syujetning jonli qismi sanalib, unda tasvir kinoyaviy tarzda bayon etilgani ham yozuvchi badiiy estetik ideali xunuklik (*pahlavon itlarning og‘zidan o‘pishlari ham g‘ayri ixtiyoriy*) orqali berilganiga ishora qiladi.

Asar oxirida ikki xatboshida keltirilgan taraf vakillari voqealardan to‘g‘ri xulosa chiqarmasdan zabardast it izlayotganliklari, agar topilmasa odamni it qiyofasida jangga tashlari ortidan odamlar naqadar tubanlashib ketganligini ochiq bayon etgan. Ungacha esa xo‘roz, kaklik, qo‘chqor urishtirish bo‘lgani, ammo bular it urishtirish o‘rniga o‘tmasligi keltiriladi. Oxirida Samarqandlik kishilar tuyalarni ham urushtirishgani keltirilib, kishilar saviyasi pastligi, johilligi kinoyaviy tarzda aks ettiriladi. Demak itlar janggi orqali xalq ma’naviy taraqqiyotiga chaqiruv bor. Bunda shaxs ma’naviyati, axloqan yetukligi asosiy o‘rinda turadi. Xuddi shunday muammoning badiiy tasvirini Said Ahmad hajviy yo‘l bilan, demakki Abdulla Qodiriy boshlagan an’anani XX asrning ikkinchi yarmidan davom ettirgan. Said Ahmadning “Qoplun” nomli hikoyasida Qoplun laqabli it yordamida xudbin,



shaxs sifatida tor fikrli kishining obrazi ochib berilgan. Hikoya 1962-yilda yozilgan bo‘lib ifoda uslubiga ko‘ra hajviy-kinoyaviy hisoblanadi<sup>8</sup>. Hikoya quyidagi ekspozitsiya bilan boshlanadi:

*“Yangi uy Tillayevga yoqdi. Yuklarni mashinadan tushirayotganda Qurbonboy bir gap aytib qoldi:*

*– Sizga endi bitta it lozim, o‘rtoq Tillayev. It uying savlati. Albatta it boqing. O‘zimg‘alatisini topib beraman.*

*Tillayevning itga uncha xushi yo‘q edi, indamay qo‘ya qoldi. Qurbonboy xotinlarning hayhaylashiga ham qaramay polni ham o‘zi yuvdi. Gilamni ham ham o‘zi ko‘chaga olib chiqib qoqib keldi.*

*– Iya, iya biz turganda nega endi siz pol yuvarkansiz, opa? O‘zimiz qotirib tashlaymiz. Men gilam qoqayinu, siz tomosha qiling. Ammo-lekin itning g‘alatisini boqish kerak. Ko‘chadan kirgan odam kiroyi direktor bo‘lsang, shunaqa it bor, deb havas qiladigan bo‘lsin”.*

Parchada yangi lavozimga tayinlangan Tillayevning xizmat uyiga ko‘chib borishi va unga Qurbonboy degan xodimning iliq muomalasi, fidoiylik bilan xizmat qilishi, it haqidagi ta’kidiga e’tibor berish kerak. Hikoyaning nomi ham “Qoplon”, asosiy personaj Qurbon ismli bo‘lgani holda, o‘zini yangi direktorga yaqin ko‘rsatib, uyidagi hamma ishlarida yordam bermoqda. Uning it haqidagi tushunchasida g‘alatilik bor. Uy aslida kishi bilan obod, ko‘rkam bo‘lishi kerak. Ammo Qurbonboy tushunchasi bo‘yicha direktorning iti boshqalardan farq qilishi, uning ijtimoiy holatini ko‘rsatishi lozim. Bu bir tomondan XX asr ikkinchi yarmida ba’zi odamlarning turmush tarziga aylangan tushuncha ham hisoblanadi. Yozuvchi shu yo‘l bilan laganbardor kishilarning siyrat va suvratini aks ettirishni maqsad qilgani ko‘rinadi. Lekin bu ishni personajning aynan it va uning falsafasiga xos fikrlashida namoyon etadi.

Ekspozitsiyada it masalasi o‘rtaga chiqdi. Uning ahamiyati Qurbon tushunchasi bo‘yicha yoritildi. Tillayev ko‘chlarini ham joylab bo‘lishdi. Ammo syujetning keyingi qismida, mantiqan olganda, Qurbonboy ketishi kerak edi. Biroq bunday bo‘lmaydi.

<sup>8</sup>Said Ahmad. Qoplon (hajviy) hikoya. [www.ziyounet](http://www.ziyounet) kutubxonasi. Hikoyaga oid havolalar mazkur manbadan olindi.



*“Hovlida ancha aylanib yurdi. It bog‘laydigan joyni o‘zi belgiladi. A – Yo‘o‘o‘q, o‘rtoq Tillayev. It masalasini bizga qo‘yib beravering. Mana, itning joyi shu. Kichkinagina, ixchamgina uycha qurib bersam, itning ham joni kirib qoladi. Xo‘p biz ketdik”.* Bu yerda Qurbonboyning Tillayevdan foydalanish niyati, aniq maqsadi borligi uning itga joy tanlashda, it olib kelishni va‘da qilgandek bo‘lishida seziladi, ammo ochiq aytilmaydi. Bu mazmuniy ziddiyat yoki munosabatlar ziddiyati sifatida asarning ikkinchi qismida ochiladi.

Aslida Qurbonboyning Tillayev chaqirmagan, uni yaxshi bilmasligi keyingi qismida Tillayev nutqidan anglanadi: *“– Bu kishi kim bo‘ladilar? – dedi Tillayevning xotini uning orqasidan borib eshikni ilgaklab qaytarkan.*

*– Judayam anig‘ini bilmayman, garajimizda ishlasa kerak. Ko‘chishga mashina so‘ragandim zavgar (garaj mudiri – izoh bizniki A.B.) qarashib yuboradi, deb qo‘shib bergan edi, – dedi Tillayev”.*

Tashkilot direktorining boshqa uyga ko‘chishiga qarashish uchun kelgan odamning pol yuvishi, uy haqida qator fikrlar bildirishi ostida uning xarakteridagi qator jihatlar, birinchidan, u aniq maqsadni ko‘zlashi, ikkinchidan, it orqali direktorga yaqin bo‘lishga intilishi, asl maqsadini yashirishini anglash mumkin. Bu fikrlar Qurbonboyning keyingi harakatlarida yanada teranroq ochila boradi:

*“Ertasiga Tillayev ishdan qaytib yuvinayotganda Qurbonboy kattakon it yetaklab keldi. U itni ayvonning ustuniga boylab, iljaydi.*

*– Oti Qoplon, Tillayev aka, Odamning yaxshisini darrov taniydi. Sizga tez o‘zganib ketadi. Ertaga yaxshilab uycha yasab berib ketaman.*

*U qo‘lini yuvib kelib, yarim soatcha itning ta‘rifini qilib o‘tirdi. – It hamma narsani tushunadi, faqat jonivorning tili yo‘q”.*

Qurbonboy shu tariqa Tillayevga yaqin bo‘lib oladi. Bu yerda Tillayevning xotini ham muhim o‘ringa ega bo‘ladi. Tillayevga Qurbonboy “dardi”ni yetkazadi. Tillayevning unga mehri tushadi. Uyiga yuz saksonta shifer, o‘ttizta tunuka tushurtirib beradi. Oddiy xodimlikdan o‘rinbosarlikka ham ko‘taradi. Kuniga Qurbonboy tushlikda kelib, Qoplanni o‘ynatib ketadi. Shundan keyin voqealar rivojida burilish yuz bera boshlaydi. Avvaliga



Tillayev bod kasali qo'zib, kasalxonaga tushadi. Qurbonboy uning holidan xabar olib turadi. Lekin vrachlar Tillayevga endi pensiyaga chiqishni tavsiya qilishlari va Tillayev ariza yozib ishdan bo'shagan kuniyoq Qurbonboy Qoplanni aylantirgani olib chiqib ketdiyu, qaytib kelmaydi.

*“Oradan ancha vaqt o'tdi. Tillayev xassaga tayanib ko'cha aylangani chiqdi. Bir mahal qarasa ko'chaning narigi betida Qurbonboy Qoplanni yetaklab yuribdi. Chaqirsa it qaradi-yu, Qurbonboy qaramadi. O'sha kuni yangi direktor o'g'lining tug'ilgan kuniga o'tirish qilib berayotgan ekan. Tillayevga mashina yuboribdi. Er-xotin borishdi. Darvozadan kirishlari bilan yo'lakda yotgan Qoplon ularni ko'rib, dumini likillatib erkalandi.*

*– Bizning it qalay? – dedi yangi direktor.*

*A – Bu itni taniyman, a – dedi Tillayev va nariroqda yangi direktorning charm to'nini tuflab artayotgan Qurbonboyga qarab, uyiga kirib ketdi”.*

Hikoya yakunidan ko'rinadiki, it aslida kishiga bo'lgan mehrini unutmaydi. U egasiga sodiq qoladi. Ammo Qurbonboy singari odamlar o'z xarakterlari bilan itdan ham tuban ekanliklarini namyon etishi aks etgan. Bu yerda laganbardor shaxsning ruhiyati, butun portreti it yordamida ochib beriladi. Hatto Qoplon Qurvonolidan oriyatliroq, mehr-oqibatliroq ekanligi hikoyada ko'rinadi.

To'g'ri, hikoya uchun olingan voqea sobiq tuzum muhitini yoritadi, unda qator ijtimoiy nohaqliklar ham oddiy holat sifatida berilgan. Ammo, eng muhimi shaxs ma'naviy olamidagi evrilish fojeasini teran aks ettirgan. Bunda aynan it obrazi asosiy detal-obraz vazifasini bajargan.

Demak, Said Ahmad o'zbek nasrida it obrazi orqali ba'zi salbiy xarakterli kishilar portretini yaratishda unumli foydalangan. Umuman olganda, XX asr o'zbek nasrida it obrazi va uning kishiga sodiqligi, sadoqati, vafodorligi haqidagi asarlar mavjud bo'lib, bu qadim an'analarning yangicha talqini sifatida baholanishi mumkin.

Fasldagi fikr-mulohazalardan ma'lum bo'ladiki, o'zbek adabiyoti it obrazining tadrijiy takomili bir tekisda, doimiy ijobiy bo'lavermagan. Xususan, islom kirib kelguncha bo'lgan davrda it obrazi ijobiy va salbiy ma'nolarda nisbatan faolroq bo'lgan. Ammo,



islom dini kirib kelgach, it obrazi tasavvuf adabiyotida ramziy ma'nolar bilan qo'llandi. Uning asl mohiyati deyarli aks ettirilmadi. Lekin XX asr boshlaridan boshlab, it obrazi realistik asosda tasvirlash kuchaydi. Bu esa yozuvchilarga mazkur obrazni turli qusrlardan badiiy tasvirlash imkonini berdi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Abu Homid G'azzoliy. Kimyoi saodat (Ruh haqiqati. Nashrga tayyorlovchilar: Mahkam Mahmud Andijoniy, Abdulloh Umar Toshkandiy.– Toshkent: Adolat, 2005. – B.34 (234) [www.ziyonet](http://www.ziyonet) kutubxonasi.
2. Abu Homid G'azzoliy. Kimyoi saodat (Ruh haqiqati. Nashrga tayyorlovchilar: Mahkam Mahmud Andijoniy, Abdulloh Umar Toshkandiy.– Toshkent: Adolat, 2005. – B.157 (234) [www.ziyonet](http://www.ziyonet) kutubxonasi.
3. Abu Homid G'azzoliy. Ihyou ulumid-din Din ilmlarini jonlantirish). – Toshkent: Mavoruunahr, 2006. – B.9-10.(120) [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi.
4. O'zbek xalq maqollari. Tuzuvchilar: T. Mirzayev, A. Musoqulov, B. Sarimsoqov; Mas'ul muharrir: Sh.Turdimov. – Toshkent:Sharq, 2005. – 512 b.
5. Матякубова Т.Р. Поэтик идрок ва маҳорат. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2011. – Б.41 (172).
6. Қодирий, Абдулла. Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq, 2014. – Б.605.
7. Said Ahmad. Qoplon (hajviy) hikoya. [www.ziyonet](http://www.ziyonet) kutubxonasi.